

MUQIMIY QALAMIGA MANSUB “DARIG’O MULKIMIZ” MUXAMMASINING NASHRLARARO QIYOSIY TAHLILI

H.O. Safarova - BuxDU, f.f.n. dotsent

X.I. Baxtiyorova - BuxDU,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo’nalishi

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada Muqimiy asarlari nashrlaridagi hajviy she’rlarining farq va o’xshash tomonlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: satira, humor, muxammas, Muhammad Aminxo’ja Muqimiy, G’afur G’ulom, H. Razzoqov, G’ulom Karimov, noshir, nashr

Muhammad Aminxo’ja Muqimiy o’z davrida hajviy asarlari bilan xalq nazariga tushgan ijodkorlardandir. Chunki shoir xalq hayotini, turmush tarzini o’z ko’zi bilan ko’rgan. Va ularning dardini qalamga olgan. Sho’rolar davrida muqimiyyunos olimlar Muqimiy ijodiga doir qator tadqiqotlar yaratdilar. Homil Yoqubov, Abdulla Olimjonov, Hamid Olimjon, Hodi Zaripov, Hoshimjon Razzoqov, G’ulom Karimov, Abdurashid Abdug‘afurov, Abduvohid Shokirov kabi olimlar tadqiqotlari shular jumlasidandir. Jumladan, H.Yoqubovning “O’zbek shoiri Muqimiy”, A.Olimjonovning “Muhammad Amin Muqimiy”, H. Zaripovning “Muhammad Amin Muqimiy”, H.Razzoqovning “ Muqimiy va Zavqiy” nomli kitoblari hamda “ Furqat va Muqimiy”nomli maqolalar to’plami nashr etilgan. 1976-yili Abdurashid Abdug‘afurovning “Muqimiy satirasi” kitobi nashrdan chiqди. Kitobda shoirning satiralari va humorlari tahlilga tortildi. ularning o’zbek adabiyotida hajviyotni rivojlantirishdagi o’rni masalasi o’rganildi. Sunnatulla Ahmedovning 1986 yili chop etilgan “O’zbek adabiyotida sayohatnoma” kitobida shoir qalamiga mansub sayohatnomalar tadqiq qilingan. Ijodkor sayohatnomalarida ko’tarilgan mavzular, ularning badiiyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Ushbu tadqiqotlarda shoir ijodining ayrim jihatlarining buzib ko’rsatilish ham bo’ldi. Bunda olimlarimizni ayblashimiz noo’rin. Negaki, vaziyat shuni taqozo etardi. Sho’ro davri mafkurasiga ko’ra, ular quyidagi xatolarga yo’l qo’yanlar:

Birinchidan, shoirning diniy-tasavvufiy ruhdagi aksariyat she’riy asarlari nashr etilmay qoldi;

Ikkinchidan, Muqimiyni boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib ko’rsatish tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa etib belgilandi;

Uchinchidan, Muqimiyning “Saroy adabiyoti” va an’analariga bo‘lgan munosabati noto‘g‘ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlari izlandi.¹

Shoirning turli janrlardagi lirik she’rlari singari “Darig‘o mulkimiz”, “Hajvi Bekturboy”, “Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas”, “Dar mazammati zamona”, “Ho‘qandlik bir boyning sha’niga Muqimiy shoirning aytkon she’ridur”, “Urug”, “Veksil”, “Dar mazammati qurbaqa”, “Sayohatnoma” kabi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlarining tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir.

Filologiya fanlari nomzodi Qo‘Idosh Pardayevning aniqlashicha, shoirning muxammas janridagi “Darig‘o mulkimiz” sarlavhali she’ri Muqimiy asarlar to‘plamining sho’rolar davridagi eng so‘nggi nashrida² 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Filologiya fanlari nomzodi Abdullatif Turdialihev nashr ettirgan “Bog’ aro” she’rlar to’plamida xatoliklar bartaraf etilib, asliyatdagidek nashr etilgan. Tushirib qoldirilgan 2 band ham Abdullatif Turdialihev nashrida keltirilgan:

Beku bekzodalar monandai xas poymol o’ldi,
Tamomi og’zi katta shanqilardin oqsaqol o’ldi,
Alar oldida olim so’z deyolmay gungu lol o’ldi,
Ko’torub bosh yurumak ko’chada amri mahol o’ldi,
Tamomi hezu xunso, o’g’rilar to’bchoqsuvor o’lmish.

Sayidu xojaning egnidakim yangi chafoni yo’q,
Alardin o’zga el nazdida odamning yamoni yo’q,
Kaqolatdinki aksar xalqning rangida qoni yo’q,
Bisotin oxtarib kelsang agar, bir kaf samoni yo’q,
Ajabkim, ko’chalarda kiymishi atlas tavor o’lmish.

Bundan tashqari, deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so‘ng joriy nashrlarga kiritilgan. Natijada, shoirning chor mustamlakachilariga bo‘lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan. Buni muxammasning birinchi bandidagi misralardayoq ko‘rishimiz mumkin:

Gulom Karimov nashrida:

Darig‘o mulkimizning sohibi ahli sharor o’lmish,

¹ Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-uni .uz.

² Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 356-бет.

Shariat hukmi qozilar qo‘lida purg‘ubor o‘lmish,
Ba joyi amri ma’ruf kori munkar oshkor o‘lmish,
Hakim-u, olim-u, sohib fasohat xor-u zor o‘lmish,
Bu kunda kimki imonin sotar, ul e’tibor o‘lmish.

Asliyatda³ :

Darig‘o, dini islom hokimi ahli kuffor o‘lmish,
Shariat ko‘zgusikim kufr gardidin g‘ubor o‘lmish,
Ba joyi amri ma’ruf nahyi munkar oshkor o‘lmish,
Sayid, sodotlar behurmat-u, ko‘p xor-u zor o‘lmish,
Bu kunda kimki imonin sotibdur, e’tibor o‘lmish.

Mana, she’r butunlay buzib, teskari tahrir qilingan. Aslida, muxammasda shoir mustamlakachilarni tanqid ostiga olgan. Ammo, tahrir natijasida shoirning tanqidi din peshvolariga, qozi-yu boylargacha qaratilgan bo‘lib qolgan. Shoirning maqsadi bunday emasligi ma’lum.

Tahrirga uchragan misralarga e’tibor qaratsak:

G’ulom Karimov nashrga tayyorlagan 1960 – va 1974 - yilgi nashrlarda quyidagi misralar orqali qozilar qo‘lida qolgan shariat hukmi tuproq bilan tenglashgani aytilsa:

Shariat hukmi qozilar qo‘lida purg‘ubor o‘lmish,

Filologiya fanlari nomzodi Abdullatif Turdialiiev nashr ettirgan “Bog’ aro” she’rlar to’plamida shariat ko‘zgusi kofirlilik, dinsizlik natijasida keraksiz matoh singari chang bosib yotgani aytilmoqda:

Shariat ko‘zgusikim kufr gardidin g‘ubor o‘lmish

G’ulom Karimov nashrida 4-misra quyidagicha keltirilgan:

Hakim-u, olim-u, sohib fasohat xor-u zor o‘lmish,

Ushbu misralar orqali hakimlar, olimlar xor-u zor bo’lganligi aytilsa;

Abdullatif Turdialiiev nashrida:

Sayid, sodotlar behurmat-u, ko‘p xor-u zor o‘lmish,

bu misrada esa sayid, sodotlar tilga olingan. Sodotlar so’zining ma’nosiga qaraydigan bo’lsak, mo’tabar insonlar degan ma’noni bildiradi. Demak, Muqimiy mo’tabar insonlarning behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e’tiroziga sabab bo‘ladi. Muxammasning ikkinchi bandi ham quyidagicha tahrir qilingan:

G’ulom Karimov nashrida:

³ Мадаминов А. Янги баёз, Т.: 1997, 16-бет. Бу шеър матни А.Турдиалиев хизмати билан нашр этилган “Бог аро” номли тўпламда тузатилган (Т.: Akademnashr, 2010, 243-бет).

Zamona ahlining bir hayli bordur hayf insonliq,
Shul insofi bilan ul aylagay da'vo musulmonliq,
Birovga hiylayu makr aylayur, af'oli shaytonliq,
Bo'lur xursand o'z qilg'onishiga buyla nodonlik,
Berib qiz keksa boyga faxrila xesh-u tabor o'lmish.

Abdullatif Turdialihev nashrida:

Zamona ahlining bir firqasig'a hayf insonliq,
Qilurlar, bilmagay "Alhamd", da'voyi musulmonliq,
Birovga hiyla-yu makr aylamak af'oli shaytonliq,
Bo'lur xursand bu shahrning bo'lg'onig'a kofiristonliq,
Berib qiz kufr elig'a, ba'zilar xesh-u tabor o'lmish.

Muqimiy ushbu misralar orqali jamiyatda fisq-u fasod ishlarning ko'payib ketishini g'ayridin kishilar va kofirlar aralashuvida deb bildi. Natijada xalqning ma'naviy buzilishi, e'tiqodsizlik, axloqsizlik, xiyonat, ichkilikbozlik avj oldi. Ayniqsa, "Berib qiz kufr elig'a, ba'zilar xesh-u tabor o'lmish" degan fikrlari ham shoirning millatdoshlaridan nechog'lik norozili ekanligini anglatib turibdi. "Hazor afsuskim, ilm ahvida bir zarra izzat yo'q" deb boshlanuvchi bandidagi misralarda ham zamonning ayanchli ahvolga tushib, nodon kimsalar hurmat va izzatda-yu, ilm ahlining xor-u zor bo'lishi, ularga zarracha ham izzat yo'qligi kuyunchaklik bilan tilga olinadi.

Muqimiy hajviy asarlari qiyosiy tahlili jarayonida sho'rolar davri nashrlarining asliyatdan ancha farq qilishi ma'lum bo'ldi. Jumladan, 1974-yilda G'ulom Karimov tomonidan nashrga tayyorlangan "Asarlar" da ba'zi baytlarning tushirib qoldirilganligi, ayrim misralardagi so'zlar xato qo'llanganiga guvoh bo'ldik. Ammo 2010-yilda Abdullatif Turdialihev tomonidan nashr ettirilgan "Bog' aro" she'rlar to'plamida bu xato-kamchiliklar tuzatilgan. Yuqoridagi xato-kamchiliklarga qaramasdan, G'ulom Karimov nashri Muqimiy ijodi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki ishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afur G'ulom. Muqimiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: O'z SSR davlat nashriyoti, 1953.
2. G'ulom Karimov. Muqimiy. 2 tomlik asarlar to'plami.- Toshkent: O'z SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1960.
3. G'ulom Karimov. Muqimiy. Asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1974.
4. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-univ.uz.